

## UMUMIY O'RTA TA'LIM RAHBARLARI ORASIDAGI QO'RQUVLARNING O'ZIGA XOSLIGI

**Zafarova Nargiza Anvarovna**

*Puchon universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari hamda ulardagi qo'rquvlarning o'ziga xosligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Rahbar, maktab, psixologiya, boshqaruv qo'rquv, yondashuv, umumta'lim.*

Mustaqil O'zbekistonning o'z ishonchli va bardavom bo'lgan yo'li, aniq maqsadi bor, ertasi bugungi kundanda farovon va nurafshondir. Barchamizga ma'lumki, so'ngi 5 yilda Prezident Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan mamlakat rivojlanishiga yo'naltirilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, ilm-fan va sog'liqni saqlash kabi ko'plab sohalarida misilsiz ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Olib borilgan tadqiqotimiz umumiy o'rta ta'lim tizimi doirasida bo'lib, umumta'lim rahbarlarini qo'rquvining o'ziga xos bo'lgan shaxsiy va umumiy muammolarni bartaraf eta olishi va zamon bilan ham nafas bo'lishidan iboratdir. Bu esa ilmiy tadqiqotning jamiyat hayoti uchun naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi globallashuv va raqamli o'zgarishlar sharoitida ta'lim tizimini samarali boshqarish maktab rahbarlarining kasbiy va menejerlik kompetensiyalariga bevosita bog'liqdir. Umumta'lim maktabi rahbari faqat tashkiliy jarayonlarni nazorat qiluvchi emas, balki ta'lim jarayonining strategik yo'nalishini belgilovchi, innovatsiyalarni joriy etuvchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, rahbarning menejerlik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ta'limni boshqarish nazariyasida uning o'ziga xosligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning evolyutsiyasini tarixiy-pedagogik tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo'lib xizmat qilishi, ushbu boshqaruvning yetakchi paradigmasini kvalifikatsiya qilish funksiyasini bajarishi mumkin. Shubhasiz, ularning har biri boshqaruvni shakllantirish jarayonida u yoki bu tarixiy bosqichda ma'lum foyda keltirgan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimini boshqarish jarayoni o'zining murakkabligi va o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham boshqaruv jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari boshqaruv maqsadi va vazifalarni amalga oshirish davomida amalga oshiriladi. Aynan shuning uchun ham boshqaruv sub'yekti va ob'yekti o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatni talqin etishda rahbar shaxsi psixologiyasi markaziy o'rinda turadi. Rahbar va xodim o'rtasidagi mazkur munosabat tizimining tashkiliy qismlari o'zaro itoatdaligi bilan xarakterlanadi.

Boshqaruvdan ko'zlangan asosiy maqsad – bo'lg'usi rahbarlarda boshqaruvning ijtimoiy-psixologik muammolari, boshqaruvchi shaxsga oid turli ijobiy va salbiy

xususiyatlarni, boshqaruvga doir ijtimoiy munosabatlarining ob'yektiv va sub'yektiv sifatida talqin etiladigan o'ziga xos qonuniyatlariga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakani shakllantirishdan qaratilgan.

Boshqaruvning vazifalari – boshqaruv jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatdan kelib chiqishi va zarurligi, boshqaruvning uslublari, boshqaruv funksiyalari va turkumlari, boshqaruvda ob'yekt bilan sub'yekt munosabatlari, boshqaruvning asosiy tamoyillari, qonunlari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarni umumta'lim tizimi rahbarlari shaxsiga o'rgatishdan iborat.

Maktab direktorlarining muloqot madaniyatini, ijtimoiy-psixologik kompetentligini tarkib toptirishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar bir vaqtning o'zida ham nazariy, ham amaliy tomondan o'zida quyidagi ilmiy asosini qamrab oladi:

1) Kreativ fikrlay oladigan ma'nan yetuk rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish;

2) Ijtimoiy-psixologik kompetentlikga ega bo'lgan zamonaviy rahbar shaxsini tarkib toptirish;

3) Yuqori muloqot madaniyatiga va zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan rahbar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

4) Ruhan sog'lom, ma'nan barkamol, aqlan uyg'un kamol topgan avlodga ta'lim-tarbiya bera oladigan rahbar shaxsini rahbarlarni shaxsini takomillashtirish;

5) Pedagogik jamoaga zarur imkoniyatlar bazasini yarata oladigan kognitiv va tashabbuskor rahbarlarni tayyorlashga erishish.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi, o'quv jarayonining sifatli tashkil etilishi va pedagogik jamoaning samarali boshqarilishini ta'minlovchi asosiy shaxslardir. Ularning faoliyati yuqori mas'uliyat, tezkor qaror qabul qilish, turli xil tashkiliy va psixologik vaziyatlarni boshqarishni talab qiladi. Shu bois maktab rahbarlari orasida kuzatiladigan qo'rquvlar, ularning tabiati va o'ziga xos xususiyatlari ta'lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan muhim masala hisoblanadi.

Birinchidan, rahbarlar orasida eng ko'p uchraydigan qo'rquvlaridan biri — tizimiy nazorat va baholashdan cho'chishdir. Ta'lim sifatini nazorat qiluvchi davlat organlari, tuman yoki shahar bo'limlarining tekshiruvlari rahbarda mas'uliyat hissining ortishiga olib keladi va bu jarayon ko'pincha ortiqcha tashvish, xato qilishdan qo'rquvni kuchaytiradi. Nazorat natijalari bevosita rahbarning faoliyati bilan bog'lanishi bu qo'rquvning psixologik jihatdan mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, o'qituvchilar jamoasi bilan ishlashda yuzaga keladigan qo'rqinch ham sezilarli. Jamoada nizolarning paydo bo'lishi, o'qituvchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, yangi islohotlarga qarshilik kabi holatlar rahbarning boshqaruv jarayonida o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Bu qo'rquvning asosida, odatda, jamoani boshqara olmaslik yoki pedagogik muhitni barqaror saqlay olmaslik xavotiri yotadi.

Uchinchidan, so'nggi yillarda ota-onalar bilan kommunikatsiya qilishdagi qo'rquv ham kuchaygan. Ota-onalarning talabchanligi ortishi, ijtimoiy tarmoqlarda fikr bildirish imkoniyatlarining kengayishi, shikoyatlarning ko'payishi rahbarlarda o'z harakatlariga

nisbatan ehtiyotkorlikni oshiradi. Ba'zan ortiqcha tanqidga uchrashdan, vaziyatni izohlashda noto'g'ri tushunilmaslikdan cho'chish kabi holatlar kuzatiladi.

To'rtinchidan, islohotlar va yangilanishlarni joriy etishdagi qo'rquv ham o'ziga xosdir. Ta'lim tizimi doimiy ravishda modernizatsiya qilinayotgan sharoitda rahbarlar yangicha yondashuvlarni to'g'ri qabul qilmaslik, jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik, baholash mezonlarining o'zgarishi kabi omillardan xavotirlanadi.

Nihoyat, eng umumiy psixologik qo'rquv — bu lavozimni yo'qotish yoki natija ko'rsatkichlarining pasayishi qo'rquvidir. Ushbu qo'rquv rahbarning tezkor qaror qabul qilishiga, yangiliklarni tatbiq etishiga, tashabbus ko'rsatishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim rahbarlari orasidagi qo'rquvlarning o'ziga xosligi ularning faoliyatida yuqori mas'uliyat, ko'p tomonlama boshqaruv vazifalari, tashqi bosim va ichki jamoaviy munosabatlarning murakkabligi bilan izohlanadi. Ushbu qo'rquvlarni yengish uchun psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish, rahbarlarni kommunikativ kompetensiyalar bo'yicha qo'llab-quvvatlash, ular uchun muntazam treninglar, stressni boshqarish bo'yicha dasturlar joriy etish muhim ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Po'latov Sh. Ta'lim muassasalarini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi. –T.: -- “Tafakkur” nashriyoti. 2012.
2. Gilbreth, Lillian Moller. The Psychology of Management: The Function of the Mind in Determining, Teaching and Installing Methods of Least Waste. – USA, 2013.
3. Karimova V.M., Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. “O'quv qo'llanma”. –T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. – 2010-211 b.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2007. – 176 b.
5. Xolmurodov Sh., Xolmurodov A. “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida samarali boshqarishni tashkil etish yo'llari” o'quv qo'llanma – Jizzax 2024.